

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

*ijtimoiy-igʻtisodiy, innovatsion texnik,
fan va taʼlimga oid ilmiy-amaliy jurnal*

2026-YIL

SENTYABR / 9-SON, II-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.us/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari


08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
ИМЕНИ Ф.Р. РАКАНОВА
ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИЕ НАУКИ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, sentyabr.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKINI ERTA ANIQLASH TIZIMINI SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	9
Kobilova Ozoda Abdishukur qizi	
BUYUK BRITANIYA STARTAP EKOTIZIMINI BOSHQARISH MODEL VA O'ZBEKISTON UCHUN SABOQLAR.....	15
Sodiqov Elmurod Shomurod o'g'li	
ФИНАНСОВЫЕ ОГРАНИЧЕНИЯ АГРОБИЗНЕСА, РЕФОРМА ИНСТИТУТА НЕПЛАТЁЖЕСПОСОБНОСТИ И ГЕОГРАФИЯ СЕЛЬСКОЙ БЕДНОСТИ: УЗБЕКИСТАН, 2015–2025 ГОДЫ.....	21
Адилов Шерзот Шамильевич	
AHOLI DAROMADLARI VA ISTE'MOL XARAJATLARINI TADQIQ ETISHNING ZAMONAVIY EKONOMETRIK YONDASHUVLARI	30
Farmonov Dilshod Po'latovich	
SUN'IY INTELLEKT TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA INSON KAPITALIGA QO'YILADIGAN KOMPETENSIYAVIY TALABLARNING O'ZGARISHI: XALQARO TENDENSIYALAR VA O'ZBEKISTON UCHUN USTUVOR YO'NALISHLAR	36
Durdona Davletova	
KICHIK BIZNES SOHASIDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH VA MEHNAT MUNOSABATLARINI TARTIBGA SOLISH OMILLARI, USULLARI HAMDA FUNKSIYALARI	56
Ulug'muradova Nodira Berdimuradovna	
O'ZBEKISTONDA YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLARNI SOLIQQA TORTISHNING AMALDAGI MEKANIZMI.....	61
Erxanov Muxammadjon Absayitovich	
BOSHQARUV TIZIMIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ZAMONAVIY MEKANIZMLARI.....	68
Safarov Shohboz Vahob o'g'li	
EVALUATION OF THE PHYTOREMEDIATION POTENTIAL OF AZOLLA CAROLINIANA FOR THE REMOVAL OF TOXIC METALS FROM INDUSTRIAL EFFLUENTS	72
Azimov Shavkat Shuxratovich	
STABLE CEMENT COMPOSITES BASED ON WASTE TIRE RUBBER AND FLY ASH	78
Daminov Oybek, Egamberdiyev Elmurod, Xoliqulov Odiljon	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA ISHLAB CHIQARILGAN MAHSULOTLARNING EKSPORT SALOHİYATINI BAHOLASH.....	85
Xikmatullayeva Nargiza Jamoliddin qizi	
CO-LOCATED SMALL MODULAR REACTORS AS AN ALTERNATE AC POWER SOURCE FOR LARGE NUCLEAR UNITS UNDER REGIONAL GRID CASCADING CONDITIONS: A DESIGN-BASIS ASSESSMENT FOR UZBEKISTAN	90
Turaeva Dilnavoz	
YO'LOVCHI TASHISH TRANSPORTINI BARQAROR IQTISODIYOTGA ULUSHINI EKONOMETRIK MODELASHTIRISH USULLARI.....	96
Dilshod Karimboyev	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И АКТУАЛЬНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЭЛЕМЕНТОВ НАЦИОНАЛЬНОЙ МОДЫ НА ТУРИСТИЧЕСКОМ РЫНКЕ УЗБЕКИСТАНА	102
Юсупова Мохинур Фарход кизи	
АДАПТИВНОЕ РАЗВИТИЕ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ ПРЕДПРИЯТИЙ КАК ФАКТОР КАЧЕСТВЕННОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА УЗБЕКИСТАНА В УСЛОВИЯХ ЭНЕРГОПЕРЕХОДА.....	110
Аллаева Гульчехра Жалгасовна	



ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ ИНСТРУМЕНТОВ ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ НА ПОВЕДЕНИЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЕЙ	121
Икрамова Нодира Бурхон кизи	
XONDIZA KONI POLIMETALL RUDALARINING MINERALOGIK VA TEXNOLOGIK XUSUSIYATLARINI TADQIQ ETISH.....	128
Abdisoatov Sardor, Axmatov Sobir, Eshnazarov Mustafo	
MALAKALI MUTAXASSISLAR TAYYORLASHDA TA'LIM-INNOVATSION RIVOJLANISHNING MOHIYATI VA UNING NAZARIY ASOSLARI	133
Temirova Shalola Erkinovna	
BENZIN TARKIBIDAGI KISLOROD MIQDORINI ANIQLASH: TAHLIL USULLARI VA ULARNING AMALIY AHAMIYATI	138
To'xtayev Nozim Nazir o'g'li	
EKSTRAKSIYA JARAYONI PARAMETRLARINING ERITUVCHILARNING EKSTRAKSION QOBILIYATIGA BOG'LIQLIGI	142
G'aybullayev Saidjon Abdusalimovich	
THE ROLE OF CHATBOTS IN EDUCATION AND THEIR APPLICATION	150
Hamroyev Bobirjon Bahritdinovich	
KICHIK BIZNES VA UNING MILLIY IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANISHIDAGI O'RNI.....	156
Xolmirzayev Abdulxamid Xapizovich	
KO'P QATLAMLI SFERIK QOBIQNING QOVUSHQOQ-ELASTIK MUHITDAGI XOS (ERKIN) TEBRANISHLARI	161
Jalolov Farruh Baxshulloyevich	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINI ELEKTR ENERGETIKA TIZIMIGA INTEGRATSIYALASH VA ELEKTR TA'MINOTI BARQARORLIGINI OSHIRISH	168
Jafarov Sobir Talab o'g'li	
SENTINEL-1 PSINSAR TEXNOLOGIYASI ASOSIDA QALMOQQIR OCHIQ KARYERI BORTLARINING DEFORMATSIYASINI SUN'IY YO'LDOSH ORQALI MONITORING QILISH	173
Usmonov Firdavs Ro'zimurod o'g'li	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT XARIDLARINI TASHKIL ETISHNING AMALDAGI MEXANIZMI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	181
Kurbonbekov Sardorbek Ravshanovich	
АНАЛИЗ ДИНАМИКИ, СТРУКТУРЫ И ТЕНДЕНЦИЙ РАЗВИТИЯ КРЕДИТНОГО ПОРТФЕЛЯ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ УЗБЕКИСТАНА.....	190
Умаров Улугбек Унарович	
O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA IJTIMOY FAROVONLIK VA YASHASH SHAROITLARINI BAHOLASHNING KOMPLEKS YONDASHUVI	197
Jamolov Mirzabek Mirjalil o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	202
Shokirov Shoxruxmirzo Baxtiyorjon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA AKSIZ SOLIG'I STAVKALARINING BIR XILDA OSHIRILISHINING FISKAL, ISTE'MOL VA TAQSIMLANISHGA TA'SIRI.....	208
Musurmonov Sherzod Yusupovich	
DEVELOPING A CONCEPTUAL MODEL OF A MARKETING MECHANISM FOR ATTRACTING APPLICANTS	217
Umarov Shuhrat Bahodir o'g'li	
ELEKTRON SAVDO XIZMATLARINING SOTSIAL-IQTISODIY MAZMUNI VA IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI	230
Ulugmurodov Farxod Faxriddinovich	
DISPERS SISTEMALARINING TURLARI VA ULARNINGYO'L BITUMLARINING XOSSALARIGA TA'SIRINI TADQIQ QILISH	235
Abdullayeva Shoxista Shuxratovna, Adizov Bobirjon Zamirovich	



ЦИФРОВИЗАЦИЯ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ.....	240
Нуруллаева Гулнара Коптлеуовна	
DAVLAT TIBBIYOT TASHKILOTLARIDA MOLIVAVIY HISOBOTLARNING AXBOROT IMKONIYATLARI (EKONOMETRIK MODELLAR ORQALI BAHOLASH)	245
Kuliboyev Azamat Shonazarovich	
MOLIVAVIY SAVODXONLIK VA AHOLINING TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA JALB ETILISHINI OSHIRISHNING TASHKILIIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI	253
Obilov Mirkomil Rashidovich	
IJTIMOIIY TADBIRKORLIKNI DAVLAT TOMONIDAN MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNING XORIJIY MODELLARI: QIYOSIIY TAHLIL	260
Yerjanov Shohrux Kabil o'g'li	
DAVLAT SUBSIDIIYALARINI BOSHQARISH JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISH VA XALQARO RAQAMLI INTEGRATSIYA ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	266
Hasanov To'liqin Axmatovich	
СПЕКТРОСКОПИЧЕСКИЕ ПРОЯВЛЕНИЯ ЭКСИТОННОГО ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ ПРИ САМОАГРЕГАЦИИ МОЛЕКУЛ РИБОФЛАВИНА	272
Г.К. Касимова	
QAZIB OLINAYOTGAN ENG YIRIK VA RUDA KONLARINING GEODINAMIK SHAROITLARINI TAHLIL QILISH.....	277
Qo'shshayev Uchqun Quvvatovich	
KO'P O'LCHAMLI BESSEL OPERATORLARIGA ASOSLANGAN LAPLAS-BESSEL DIFFERENSIAL OPERATORINING FORMAL O'Z-O'ZIGA QO'SHMALIGI VA BIR JINSILIK XOSSALARI HAQIDA.....	282
Jo'rayev Shaxzod Shuhratjon o'g'li	
NUQTAVIY BOG'LANISHLAR VA BIRIKTIRILGAN MASSALARGA EGA VISKOELASTIK PLASTINA-QOBIQ TIZIMLARINING ERKIN TEBRANISHLARINI VARIATSION-SPEKTRAL TAHLIL QILISH.....	287
Homidov Farhod Faxridinovich	
ELEKTROTEXNIK TIZIMLARINING METROLOGIK TA'MINOTINI RAQAMLI MONITORING VA INTELLEKTUAL DIAGNOSTIKA ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	297
Sanayeva Gulsun Baxtiyorovna	
MUHANDISLIK MASALALARINI YECHISHDA CAD VA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH.....	302
Rustamov Erkin Tohirovich	
ENERGETIKA TIZIMLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING BARQAROR RIVOJLANISHDAGI ROLI.....	307
Xafizov Islom Ikramovich	
QANDLI DIABET KASALLIGINING POPULYATSIYADA TARQALISH ZANJIRI VA DINAMIK KO'RSATKICHLARINING MATEMATIK-STATISTIK TAHLILI	314
G'aniyev Qodirjon Qahramon o'g'li	
QURILISH SOHASIDAGI KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIGA INVESTITSIYALARNI JORIY ETISH MEXANIZMLARI	319
Yunusov Abduvoxid Abdukarimovich	
MEVA SHARBATLARINI INFRAQIZIL SPEKTROSKOPIYA (IR/FTIR) USULIDA TAHLIL QILISH VA XEMOMETRIK MODELLASH ORQALI SIFAT KO'RSATKICHLARINI BAHOLASH.....	326
Ibragimov Ulug'bek Muradilloevich	
TO'LDIRUVCHILI UCH QATLAMLI QOVUSHQOQ-ELASTIK PLASTINKALARDA TO'LQIN TARQALISHI VA DINAMIK JARAYONLARNING SONLI TAHLILI	333
Narzulloyev Muxammad Azamatovich	
СВЕРХБЫСТРОЕ УПРАВЛЕНИЕ НАМАГНИЧЕННОСТЬЮ В КОМБИНИРОВАННЫХ СТАТИЧЕСКОМ И ВЫСОКОЧАСТОТНОМ МАГНИТНЫХ ПОЛЯХ	339
Н.Н.Миржонова	



SUN'IIY INTELLEKT ASOSIDA AXBOROT TIZIMLARIDA MA'LUMOTLARNI QAYTA ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	345
Aslonov Qodir Ziyodullayevich	
ОБОСНОВАНИЕ ГОРНОТЕХНИЧЕСКОГО ЭТАПА РЕКУЛЬТИВАЦИИ РУДНЫХ КАРЬЕРОВ	350
Турсунов Баходир Джунайдуллаевич	
DAVLAT XARIDLARI SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	356
Kurbonbekov Sardorbek Ravshanovich	
LOGISTIKA XARAJATLARINI SHAKLLANTIRISH VA BOSHQARISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI...	365
Rashidov Uchqun Ro'zimurod o'g'li	
O'ZBEKISTONDA ORGANIK MAHSULOTLAR EKSPORTINI RIVOJLANTIRISH VA XALQARO BOZORGA CHIQUISH MASALALARI TAHLILI.....	369
Berdiyev Samariddin Raxmatovich	
O FACTORS DETERMINING THE LEVEL OF ESG MANAGEMENTIN THE BANKING SYSTEM OF UZBEKISTAN	374
Abdullaeva Sanemkhan Isayevna	
O'ZBEKISTONDA INFLYATSIYA MAQSADLASHI REJIMI: SAMARADORLIGI, MUAMMOLARI VA 2026- YILGA YANGILANGAN PROGNOZ TAHLILI.....	381
Inobatov Abror Boshlarovich	
TO'QIMACHILIK KORXONALARINING EKSPORT SALOHİYATINI BOSHQARISHDA EKSPORTNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH IMKONIYATLARI	388
Humoyun Qodirov	
TURIZM INFRATUZILMASINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	394
Zuparova Nargiza, Yusupov Saidvali	

TURIZM INFRATUZILMASINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING TASHKILIIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Zuparova Nargiza Aripjanovna

Profi University Nodavlat oliy ta'lim muassasasi
"Xalqaro turizm menejmenti" kafedrası o'qituvchisi

Yusupov Saidvali Shukrullayevich

Alfraganus universiteti Nodavlat oliy ta'lim tashkiloti
"Xalqaro turizm menejmenti" kafedrası professori v.b., DSc

Annotatsiya: Maqolada turizm infratuzilmasini boshqarish samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalari o'rganilgan. Turizm infratuzilmasi tarkibi to'rt guruhga — bazaviy, maxsus, qo'shimcha xizmat va institutsional-axborot guruhlariga ajratilib, ularning har biri bo'yicha boshqaruv darajalari hamda moliyalashtirish manbalari aniqlangan. Tadqiqotda tashkiliy-iqtisodiy mexanizm bir-biri bilan bog'langan to'rtta blok — tashkiliy, iqtisodiy, huquqiy va axborot bloklari yig'indisi sifatida talqin qilinadi. Shu asosda infratuzilmani boshqarish samaradorligini baholashning besh guruh ko'rsatkichdan tashkil topgan integral indeksi taklif etilgan. Indeks hududlarni bir xil mezonlar asosida taqqoslash, mas'ul tashkilotlar faoliyatini natijaviy ko'rsatkichlar bo'yicha baholash imkonini beradi. Maqola yakunida hududiy muvofiqlashtiruv kengashlarini tashkil etish, davlat-xususiy sheriklik va konsessiya shakllarini kengaytirish, turistik yig'im tushumlarini hududga qaytarish, yagona raqamli reyestr va monitoring platformasini yaratish bo'yicha takliflar berilgan. Taklif etilayotgan mexanizm turizm yo'nalishlarining raqobatbardoshligini oshirishga va investitsiyalarning iqtisodiy qaytimini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: turizm infratuzilmasi, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, boshqaruv samaradorligi, davlat-xususiy sheriklik, konsessiya, turizm klasteri, turistik yo'nalish (destinatsiya), integral baholash indeksi, raqamli monitoring, hududiy rivojlanish.

Abstract: The article examines the improvement of organizational and economic mechanisms for enhancing the efficiency of tourism infrastructure management. The tourism infrastructure is divided into four groups — basic, specialized, supplementary services, and institutional-information groups — with the management levels and sources of financing identified for each group. The study interprets the organizational and economic mechanism as a combination of four interconnected blocks: organizational, economic, legal, and information blocks. On this basis, an integral index consisting of five groups of indicators is proposed to assess the efficiency of infrastructure management. The index enables regions to be compared according to uniform criteria and the activities of responsible organizations to be evaluated based on performance indicators. The article concludes with proposals to establish regional coordination councils, expand public-private partnership and concession arrangements, return tourism fee revenues to the respective regions, and create a unified digital registry and monitoring platform. The proposed mechanism will contribute to increasing the competitiveness of tourism destinations and strengthening the economic returns on investment.

Keywords: tourism infrastructure, organizational and economic mechanism, management efficiency, public-private partnership, concession, tourism cluster, tourist destination, integral assessment index, digital monitoring, regional development.

Аннотация: В статье исследуются вопросы совершенствования организационно-экономических механизмов повышения эффективности управления туристской инфраструктурой. Туристская инфраструктура подразделена на четыре группы — базовую, специализированную, группу дополнительных услуг и институционально-информационную группу, по каждой из которых определены уровни управления и источники финансирования. В исследовании организационно-экономический механизм трактуется как совокупность четырех взаимосвязанных блоков — организационного, экономического, правового и информационного. На этой основе предложен интегральный индекс оценки эффективности управления инфраструктурой, состоящий из пяти групп показателей. Индекс позволяет сопоставлять регионы на основе единых критериев и оценивать деятельность ответственных организаций по результативным показателям. В заключительной части статьи предложены меры по созданию региональных координационных советов, расширению форм государственно-частного партнерства и концессии, возврату поступлений от туристского сбора в соответствующие регионы, а также созданию единого



цифрового реестра и платформы мониторинга. Предлагаемый механизм будет способствовать повышению конкурентоспособности туристских направлений и усилению экономической отдачи от инвестиций.

Ключевые слова: туристская инфраструктура, организационно-экономический механизм, эффективность управления, государственно-частное партнерство, концессия, туристский кластер, туристское направление (дестинация), интегральный индекс оценки, цифровой мониторинг, региональное развитие.

KIRISH

Turizmning iqtisodiy samarasi ko'p jihatdan sayyoh ko'radigan diqqatga sazovor joylarga emas, balki ularga yetib borish, tunash, ovqatlanish va xavfsiz dam olish imkonini beradigan infratuzilmaga bog'liq. Tarixiy meros va tabiiy salohiyat qanchalik boy bo'lmasin, yo'l sifatsiz, joylashtirish quvvati yetarli emas, suv va energiya ta'minoti uzilib turadigan hududda turizm oqimi barqaror o'smaydi. Shu sababli turizm siyosatining og'irlik markazi so'nggi yillarda targ'ibot va reklamadan infratuzilmani rivojlantirish hamda uni boshqarish sifatini oshirish tomon siljidi.

O'zbekistonda turizm sohasi iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlaridan biri sifatida belgilangan. Viza rejimining soddalashtirilishi, xalqaro aviaqatnovlarning kengayishi, mehmonxona qurilishiga berilayotgan imtiyozlar natijasida sayyohlar oqimi sezilarli o'sdi. Ayni paytda infratuzilma obyektlarining hududlar kesimidagi taqsimotini yanada takomillashtirish imkoniyatlari mavjud: umumiy joylashtirish quvvatining katta qismi bir necha yirik shaharga to'g'ri keladi, tumanlar darajasida esa yo'l chetidagi servis, sanitariya va axborot obyektlarini rivojlantirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar mavjud. Bu holat infratuzilmani rivojlantirish bilan bir qatorda boshqaruv mexanizmlarini yanada takomillashtirish muhimligini ko'rsatadi: mavjud resurslar bir nechta idora o'rtasida taqsimlangan, ular o'rtasidagi muvofiqlashtiruv esa alohida topshiriqlar asosida amalga oshirilmoqda.

Xalqaro tadqiqotlarda ham infratuzilmaning o'zi emas, uni boshqarish tizimi raqobatbardoshlikning hal qiluvchi omili sifatida qaraladi [1; 2]. Boshqaruv jarayoni turli darajadagi tashkilotlar, xususi sektor va mahalliy aholi manfaatlarini muvofiqlashtirishni talab qiladi, bu esa o'z navbatida aniq tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini shakllantirishni taqozo etadi.

Tadqiqotning maqsadi — turizm infratuzilmasini boshqarish samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish, uning tarkibiy bloklarini asoslash hamda samaradorlikni baholashning amaliyotda qo'llash mumkin bo'lgan ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilandi: turizm infratuzilmasi tarkibini boshqaruv darajalari bo'yicha tasniflash; mavjud boshqaruv amaliyotidagi muammolarni aniqlash; integral baholash indeksini shakllantirish; mexanizmini takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Infratuzilmaning hududiy raqobatbardoshlikdagi o'rni M. Porterning raqobat ustunligi va klasterlar nazariyasida asoslab berilgan. Uning yondashuviga ko'ra, alohida korxonaning emas, balki o'zaro bog'langan korxonalar, ta'minotchilar va institutlar majmuining unumdorligi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, umumiy foydalanishdagi infratuzilma shu majmuaning tayanchi hisoblanadi [1]. Bu qarash turizm klaster shaklidagi boshqaruvni qo'llash uchun nazariy asos beradi.

C. M. Hall turizmni rejalashtirish va boshqaruv (governance) muammolarini tadqiq etib, turizm obyektlarining ko'pchiligi umumiy foydalanishdagi resurslar hisoblanishini, shu bois ular ustidan nazorat va javobgarlik bir nechta subyekt o'rtasida taqsimlanishini ta'kidlaydi. Muallif rejalashtirishning yuqoridan quyiga qaratilgan modeli mahalliy manfaatlarini hisobga olmasligini, natijada qurilgan obyektlar to'liq foydalanilmay qolishini ko'rsatadi.

D. Buhalis tadqiqotlarida turistik yo'nalish (destinatsiya) raqobatbardoshligi va uni raqamli texnologiyalar orqali boshqarish masalalari o'rganilgan. Muallif «aqlli destinatsiya» konsepsiyasini ilgari surib, infratuzilma obyektlari to'g'risidagi ma'lumotlarning yagona axborot tizimida jamlanishi resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishini asoslaydi [2]. Ushbu yondashuv monitoring va statistik hisob tizimini takomillashtirish uchun muhim.

O'zbek olimlaridan I. S. Tuxliyev turizm iqtisodiyoti va uni tashkil etish masalalarini tadqiq etib, hududiy turizm salohiyatini baholash hamda infratuzilma bilan ta'minlanganlik darajasini o'lchash yondashuvlarini ishlab chiqqan [3]. Sh. J. Ergashxo'jayevaning ishlarida marketing strategiyalari va xizmat ko'rsatish sifatini boshqarish masalalari yoritilgan bo'lib, ular infratuzilma xizmatlari sifatini iste'molchi nuqtai nazaridan baholashga asos bo'ladi [4]. N. M. Ibragimov tadqiqotlarida turistik yo'nalishlarni boshqarish va destinatsiya menejmenti tashkilotlarining faoliyati tahlil qilingan. A. N. Norchayev hududiy turizmni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlari, xususan, investitsiyalarni jalb qilish va imtiyozlar tizimi masalalarini o'rgangan. B. Yu.



Xodiyevning tarmoq iqtisodiyoti va davlat boshqaruvi samaradorligiga oid ishlarida esa natijaviy ko'rsatkichlar asosida baholash tamoyillari asoslangan.

Mavjud tadqiqotlar turizm infratuzilmasining iqtisodiy ahamiyatini va uni rejalashtirish tamoyillarini yetarlicha yoritgan. Ayni paytda infratuzilmani boshqarish samaradorligini yagona mezonlar asosida o'lchash, turli darajadagi tashkilotlar vakolatlarini aniq taqsimlash va ularning javobgarligini natijaviy ko'rsatkichlar bilan bog'lash masalalari yetarlicha ishlab chiqilmagan. Ushbu maqola shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot sifat va miqdoriy usullarning uyg'unligiga asoslanadi. Nazariy qismda ilmiy adabiyotlarni tizimli tahlil qilish, tushunchalarni qiyosiy taqqoslash va tasniflash usullaridan foydalanildi; turizm infratuzilmasi tarkibi boshqaruv darajasi va moliyalashtirish manbai mezonlari bo'yicha guruhlariga ajratildi. Normativ-huquqiy hujjatlar va soha bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar mazmunini tahlil (content analysis) usuli bilan o'rganildi. Boshqaruv amaliyotidagi muammolarni aniqlashda tizimli yondashuv va sabab-oqibat bog'lanishlari tahlili qo'llanildi. Samaradorlikni baholash uchun besh guruh ko'rsatkichdan iborat integral indeks shakllantirildi; ko'rsatkichlar turli o'lchov birliklarida bo'lgani sababli ular «minimum-maksimum» usuli bilan 0 dan 1 gacha bo'lgan oraliqqa keltirildi. Ko'rsatkichlar guruhlarining vaznlari ekspert baholash usuli asosida belgilandi va vaznlar yig'indisi birga tenglashtirildi. Olingan natijalarni umumlashtirishda induksiya, deduksiya hamda mantiqiy modellash usullaridan foydalanildi. Taklif etilgan mexanizm elementlari xalqaro tajriba bilan qiyoslash orqali tekshirildi [2].

TAHLIL VA NATIJALAR

Turizm infratuzilmasi tushunchasi va tarkibi. Iqtisodiy adabiyotlarda turizm infratuzilmasi ikki xil talqin qilinadi. Tor ma'nodagi talqinga ko'ra, unga faqat sayyohga bevosita xizmat ko'rsatuvchi obyektlar — joylashtirish, ovqatlanish va ko'ngilochar obyektlar kiradi. Keng ma'nodagi talqinda esa unga sayyoh yo'nalishga yetib borishi va u yerda qulay dam olishini ta'minlaydigan barcha muhandislik, transport va axborot tizimlari qo'shiladi. Ushbu tadqiqotda ikkinchi yondashuv asos qilib olindi, chunki boshqaruv samaradorligi masalasi aynan turli tarmoqlarga tegishli obyektlarning o'zaro bog'lanishida namoyon bo'ladi. Shu ma'noda turizm infratuzilmasi deganda turistik yo'nalishda sayyohlarga xizmat ko'rsatish zanjirini ta'minlovchi moddiy obyektlar hamda ularni boshqarish institutlari majmui tushuniladi.

Infratuzilma elementlari va boshqaruv darajalari. Turizm infratuzilmasini yagona obyekt sifatida qarash boshqaruvda chalkashlikka olib keladi, chunki uning turli qismlari turli tashkilotlar ixtiyorida bo'ladi. Tadqiqot doirasida infratuzilma to'rt guruhga ajratildi. Bunday tasniflash har bir guruh bo'yicha kim javobgar ekanligini va mablag' qaysi manbadan kelishini aniq belgilash imkonini beradi (1-jadval).

1-jadval

Turizm infratuzilmasi guruhlarini, boshqaruv darajalari va moliyalashtirish manbalari¹

Guruh	Tarkibiy elementlar	Asosiy boshqaruv darajasi	Moliyalashtirish manbayi
Bazaviy infratuzilma	Avtomobil va temir yo'llar, aeroportlar, suv, energiya va issiqlik ta'minoti, kanalizatsiya, aloqa tarmoqlari	Respublika va viloyat darajasi	Davlat budjeti, xalqaro moliya institutlari krediti
Maxsus turizm infratuzilmasi	Mehmonxonalar, xostellar, oilaviy mehmon uylari, umumiy ovqatlanish shoxobchalari, ko'ngilochar va sog'lomlashtirish obyektlari	Xususiy sektor, tuman hokimliklari	Xususiy investitsiya, imtiyozli kredit, subsidiya
Qo'shimcha xizmat infratuzilmasi	Turistik axborot markazlari, yo'l chetidagi servis, navigatsiya va yo'l ko'rsatkichlari, sanitariya obyektlari, qutqaruv va xavfsizlik xizmati	Tuman va mahalliy daraja	Budjet mablag'lari, davlat-xususiy sheriklik
Institutsional-axborot infratuzilmasi	Statistik hisob va monitoring tizimi, hudud brendi va marketing platformalari, kadrlar tayyorlash, standartlashtirish va sertifikatlash	Soha vakolatli organi	Budjet, grantlar, texnik yordam loyihalari

Jadvaldan ko'rinadiki, sayyoh yaxlit deb qabul qiladigan xizmat zanjiri amalda kamida to'rt xil boshqaruv

1 Manba: Muallif ishlanmasi.



konturi orqali shakllanadi. Ana shu konturlarni bog'lovchi mexanizmning yo'qligi yoki zaifligi samaradorlik yo'qotishlarining asosiy manbayidir [1].

Tashkiliy-iqtisodiy mexanizmning tuzilishi. Tadqiqotda mexanizm to'rtta o'zaro bog'langan blok yig'indisi sifatida talqin qilindi. Tashkiliy blok «kim qaror qabul qiladi» degan savolga, iqtisodiy blok «mablag' qayerdan keladi va qanday rag'batlantiriladi» degan savolga, huquqiy blok «qoidalar qanday» degan savolga, axborot bloki esa «natija qanday o'lchanadi» degan savolga javob beradi. Bloklardan birortasining ishlamasligi qolganlarining ta'sirini keskin pasaytiradi (2-jadval).

2-jadval

Turizm infratuzilmasini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi bloklari²

Blok	Maqsadi	Asosiy vositalari	Kutilayotgan natija
Tashkiliy	Vakolat va javobgarlikni aniq taqsimlash, idoralararo muvofiqlashtiruvni ta'minlash	Hududiy muvofiqlashtiruv kengashlari, destinatsiyani boshqarish tashkilotlari, klaster shartnomalari, «yagona darcha»	Qarorlarni qabul qilish muddatining qisqarishi, takroriy funksiyalarning bartaraf etilishi
Iqtisodiy	Moliyaviy resurslarni jalb qilish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish	Davlat-xususiy sheriklik, konsessiya, imtiyozli kreditlar, soliq imtiyozlari, maqsadli infratuzilma jamg'armasi	Budjetdan tashqari manbalar ulushining ortishi, investitsiya qaytimining tezlashishi
Huquqiy	Barqaror va oldindan bashorat qilinadigan qoidalar tizimini yaratish	Normativ hujjatlar, tipovoy shartnomalar, texnik reglament va standartlar, sertifikatlash tartibi	Investorlar uchun tavakkalchilikning kamayishi, xizmat sifatining bir xillashuvi
Axborot	Obyektlar holatini kuzatib borish va natijani o'lchash	Yagona raqamli reyestr, geoaxborot tizimi, integral baholash indeksi, sayyohlar qoniqlashini so'rov orqali o'rganish	Asoslangan qarorlar, resurslarni ustuvor yo'nalishlarga yo'naltirish

Mavjud amaliyot tahlili. Normativ hujjatlar, rasmiy statistik ma'lumotlar va soha bo'yicha tadqiqotlar tahlili boshqaruv tizimida rivojlantirish va takomillashtirish imkoniyatlari mavjud bo'lgan bir necha yo'nalishni aniqlash imkonini berdi.

Birinchiidan, idoralararo muvofiqlashtiruvni yanada takomillashtirish imkoniyati mavjud. Yo'l qurilishi, kommunal ta'minot va turizm obyektlari qurilishi rejalari ko'pincha turli tashkilotlarda alohida-alohida tuziladi hamda vaqt jihatidan ularni yanada uyg'unlashtirish imkoniyati mavjud. Natijada mehmonxona ishga tushgan bo'lsa-da, unga olib boradigan yo'l yoki suv ta'minoti keyingi yillarga qoldirilishi mumkin. Shu sababli klaster yondashuvining asosiy tamoyili — bir-birini to'ldiruvchi investitsiyalarning bir vaqtda amalga oshirilishi tamoyilini yanada keng qo'llash muhim [1].

Ikkinchiidan, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish imkoniyati mavjud. Bazaviy infratuzilma asosan budjet hisobidan qurilmoqda, davlat-xususiy sheriklik va konsessiya shakllari esa yirik loyihalarda qo'llanilmoqda. Tuman darajasidagi kichik obyektlar — sanitariya nuqtalari, yo'l chetidagi servis, ko'rsatkichlar tizimi — uchun qo'shimcha va barqaror moliyalashtirish mexanizmlarini shakllantirish infratuzilma sifatini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

Uchinchiidan, hududiy rivojlanishni yanada muvozanatlashtirish imkoniyatlari mavjud. Joylashtirish quvvati va malakali xizmat ko'rsatish salohiyati bir necha yirik shaharda to'plangan, ular atrofidagi tumanlarda esa sayyoh bir kundan ortiq qolishi uchun shart-sharoitlarni yanada rivojlantirish imkoniyati mavjud. Bu turizmning hududiy rivojlanishga qo'shadigan hissini yanada oshirish uchun muhim yo'nalish hisoblanadi [3].

To'rtinchiidan, obyektlarning hayotiy siklini hisobga olish amaliyotini yanada rivojlantirish imkoniyati mavjud. Loyihalar odatda qurilish qiymati bo'yicha baholanadi, keyingi ekspluatatsiya, ta'mirlash va yangilash xarajatlarini ham dastlabki rejalashtirish obyektlarning uzoq muddatli samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Natijada infratuzilma obyektlarining texnik holatini barqaror saqlash va qayta investitsiya ehtiyojlarini samarali boshqarish imkoniyati kengayadi.

Beshinchiidan, monitoring tizimini yanada takomillashtirish imkoniyati mavjud. Infratuzilma obyektlari bo'yicha yagona reyestri shakllantirish, obyektlarning quvvati, bandligi va texnik holati to'g'risidagi ma'lumotlarni yagona tizimda jamlash boshqaruv qarorlarining dalillarga asoslanganligini oshirishga xizmat qiladi [2].

Oltinchiidan, kadrlar bilan ta'minlash yo'nalishini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Hududlarda loyihalarni tayyorlash, davlat-xususiy sheriklik shartnomalarini tuzish va investorlar bilan ishlash bo'yicha mutaxassislar

salohiyatini oshirish loyihalarni samarali va o'z vaqtida amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytiradi [4].

Samaradorlikni baholashning integral indeksi. Mavjud muammolarning aksariyati o'lchov tizimining yo'qligi bilan bog'liq: natija o'lchanmaganda javobgarlikni ham belgilab bo'lmaydi. Shu sababli tadqiqotda besh guruh ko'rsatkichdan iborat integral baholash indeksi taklif etiladi (3-jadval).

3-jadval

Turizm infratuzilmasini boshqarish samaradorligini baholash ko'rsatkichlari tizimi³

Ko'rsatkichlar guruhi	Tarkibiy ko'rsatkichlar	Ma'lumot manbai	Vazn (wi)
I1 – Infratuzilma bilan ta'minlanganlik	1000 nafar aholiga va 1000 nafar sayyohga to'g'ri keladigan joylashtirish o'rinlari; qattiq qoplamali yo'llar ulushi; turistik axborot markazlari bilan qamrov	Statistika organlari, hokimliklar hisoboti	0,25
I2 – Mavjud quvvatdan foydalanish	Joylashtirish obyektlari bandlik koeffitsienti; obyektlar quvvatidan mavsumiy foydalanish darajasi; sayyohning o'rtacha qolish muddati	Joylashtirish obyektlari hisoboti	0,20
I3 – Iqtisodiy qaytim	Bir birlik investitsiyaga to'g'ri keladigan turizm xizmatlari hajmi; soliq tushumlari; yaratilgan ish o'rinlari soni	Soliq va statistika ma'lumotlari	0,25
I4 – Xizmat sifati	Sayyohlar qoniqish indeksi; shikoyatlar ulushi; sertifikatlangan obyektlar ulushi	So'rov natijalari, sertifikatlash reyestri	0,15
I5 – Boshqaruv sifati	Loyihalarni belgilangan muddatda tugallash ulushi; davlat-xususiy sheriklik ulushi; raqamli xizmatlar ulushi	Loyiha hisoboti, DXSh reyestri	0,15

Integral indeks quyidagi ko'rinishda hisoblanadi:

$$ITIB = \sum wi \cdot xi, \text{ bu yerda } i = 1...5; \sum wi = 1,$$

bunda ITIB — turizm infratuzilmasini boshqarish samaradorligining integral indeksi; xi — i -guruh ko'rsatkichining normallashtirilgan qiymati; wi — shu guruhning vazni. Ko'rsatkichlar turli o'lchov birliklarida bo'lgani sababli ular «minimum-maksimum» usuli orqali normallashtiriladi: $xi = (X - X_{min}) / (X_{max} - X_{min})$. Indeks qiymati 0 dan 1 gacha oraliqda bo'lib, 0,70 dan yuqori ko'rsatkich yuqori, 0,50–0,70 oralig'i o'rtacha, 0,50 dan past ko'rsatkich past samaradorlik darajasi sifatida talqin qilinadi.

Indeksning amaliy ahamiyati uch jihatda namoyon bo'ladi. Birinchidan, u hududlarni bir xil mezonlar asosida taqqoslash imkonini beradi va reyting ko'rinishida e'lon qilinishi mumkin. Ikkinchidan, indeksning tarkibiy qismlari muammoning aynan qayerda ekanini ko'rsatadi: masalan, I1 yuqori, I2 past bo'lsa, muammo obyektlar yetishmasligida emas, ularni bozorga chiqarish va targ'ib qilishda ekanini bildiradi [4]. Uchinchidan, indeks mas'ul tashkilotlar uchun natijaviy ko'rsatkichlar (KPI) tizimining asosi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Xorijiy tajribadan foydalanish imkoniyatlari. Turizm infratuzilmasini boshqarishda ijobiy natijaga erishgan mamlakatlar tajribasi bir necha umumiy jihatni ko'rsatadi. Birinchidan, aksariyat mamlakatlarda infratuzilmani rejalashtirish va targ'ibot bitta tashkilot qo'lida jamlangan yoki ular o'rtasida doimiy muvofiqlashtiruv organi faoliyat yuritadi; bu qarorlarni tezlashtiradi va mas'uliyatni aniqlashtiradi. Ikkinchidan, qirg'oq bo'yi yoki tarixiy hududlarni rivojlantirishda maqsadli hudud yondashuvi qo'llanilib, davlat avval bazaviy infratuzilmani — yo'l, suv, energiya tarmoqlarini quradi, so'ngra yer uchastkalari xususiy investorlarga aniq shartlar asosida beriladi. Uchinchidan, infratuzilma obyektlari to'g'risidagi ma'lumotlar yagona raqamli platformalarda jamlanadi va sayyohlar oqimi bilan solishtirib tahlil qilinadi; bu keyingi investitsiya yo'nalishlarini asoslashda foydalaniladi [2]. To'rtinchidan, mahalliy hamjamiyat loyihalarni muhokama qilish bosqichida ishtirok etadi, natijada qurilgan obyektlarning haqiqiy talabga mosligi ta'minlanadi. Ushbu tajribani o'zlashtirishda hududlarning iqtisodiy salohiyati va institutsional imkoniyatlaridagi farqni hisobga olish, xorijiy modellarni to'g'ridan to'g'ri ko'chirmasdan, mahalliy sharoitga moslashtirish talab etiladi [1].

Mexanizmni takomillashtirishning kutilayotgan samarasi. Taklif etilayotgan yondashuv joriy etilganda quyidagi natijalarga erishish mumkin: infratuzilma loyihalarini tayyorlash va kelishish muddatining qisqarishi; budjetdan tashqari manbalar ulushining ortishi; obyektlarning ekspluatatsiya xarajatlari oldindan rejalashtirilishi hisobiga xizmat muddatining uzayishi; hududlar o'rtasidagi farqning qisqarishi hamda sayyohning bir hududda qolish muddatining uzayishi. Bu ko'rsatkichlarning barchasi integral indeks orqali kuzatib boriladi, bu esa boshqaruv qarorlarining natijasini aniq o'lchash imkonini beradi [2; 3].



XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari turizm infratuzilmasi sohasidagi asosiy muammo mablag' yetishmasligidan ko'ra ko'proq boshqaruv tizimining tarqoqligi bilan bog'liqligini ko'rsatdi. Infratuzilma turli tashkilotlar ixtiyoridagi elementlardan tashkil topgani sababli, ularni bog'lovchi tashkiliy-iqtisodiy mexanizm bo'lmasa, ajratilgan resurslar ham kutilgan samarani bermaydi. Shu asosda quyidagi takliflar ishlab chiqildi.

Hududiy muvofiqlashtiruv kengashlarini tashkil etish. Har bir viloyatda turizm, yo'l xo'jaligi, kommunal ta'minot, madaniy meros obyektlari va tadbirkorlar uyushmasi vakillaridan iborat doimiy faoliyat yurituvchi kengash tuzilishi, kengash infratuzilma loyihalarining yagona jadvalini tasdiqlashi maqsadga muvofiq. Bu bir-birini to'ldiruvchi investitsiyalarning bir vaqtda amalga oshirilishini ta'minlaydi [1].

Davlat-xususiy sheriklik va konsessiya shakllarini kengaytirish. Yirik loyihalar bilan bir qatorda kichik obyektlar — yo'l chetidagi servis majmualari, sanitariya nuqtalari, ko'ngilochar obyektlar uchun ham tipovoy shartnoma shakllari tayyorlanishi, shartnoma tuzish tartibi soddalashtirilishi lozim. Tipovoy hujjatlar tadbirkor uchun tavakkalchilikni kamaytiradi va loyihani tayyorlash muddatini qisqartiradi.

Maqsadli infratuzilma jamg'armasini shakllantirish. Turistik yig'im va joylashtirish obyektlaridan tushadigan mablag'larning belgilangan qismi shu hudud infratuzilmasiga qaytarilishi, mablag' sarfi ochiq e'lon qilinishi lozim. Bu mahalliy hokimliklarda sayyohlar oqimini oshirishga bevosita iqtisodiy manfaatdorlik yaratadi.

Yagona raqamli reyestr va monitoring platformasini yaratish. Barcha turizm infratuzilmasi obyektlari geoaxborot tizimi asosidagi yagona bazada qayd etilishi, obyektning quvvati, texnik holati, egasi va oxirgi ta'mirlangan sanasi shu bazada aks etishi kerak. Platforma real vaqtda ma'lumot to'plash orqali investitsiya ustuvorliklarini asoslash imkonini beradi [2].

Integral indeks asosida natijaviy baholash tizimini joriy etish. Yuqorida taklif etilgan ITIB indeksi hududlar reytingini tuzishda va mas'ul tashkilotlar faoliyatini baholashda mezon sifatida qo'llanilishi, indeks qiymati yiliga kamida bir marta e'lon qilinishi maqsadga muvofiq.

Klaster yondashuvini qo'llash. Bir-biriga yaqin joylashgan diqqatga sazovor joylar, joylashtirish obyektlari, hunarmandchilik ustaxonalari va fermer xo'jaliklari yagona turistik klasterga birlashtirilib, ular uchun umumiy infratuzilma rejasi tuzilishi lozim. Bunday yondashuv ayniqsa tuman darajasida sayyohning qolish muddatini uzaytirishga xizmat qiladi [3].

Obyektlarning hayotiy sikli xarajatlarini rejalashtirish. Loyiha hujjatlarida qurilish qiymati bilan bir qatorda kamida o'n yillik ekspluatatsiya va ta'mirlash xarajatlari smetasi ko'rsatilishi, bu smeta loyihani tanlash mezonlaridan biri sifatida hisobga olinishi zarur.

Kadrlar salohiyatini mustahkamlash. Hududiy boshqaruv organlari uchun loyihalarni tayyorlash, davlat-xususiy sheriklik shartnomalarini tuzish va investorlar bilan muzokara olib borish bo'yicha maxsus qayta tayyorlash dasturlari yo'lga qo'yilishi, oliy ta'lim muassasalari bilan dual ta'lim shakli kengaytirilishi lozim [4].

Umuman olganda, taklif etilayotgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizm turizm infratuzilmasini boshqarishni alohida loyihalar ketma-ketligidan yagona, o'lchanadigan va javobgarlik aniq taqsimlangan tizimga aylantirishga xizmat qiladi. Bu esa turistik yo'nalishlarning raqobatbardoshligini oshirish, investitsiyalarning iqtisodiy qaytimini kuchaytirish va turizmning hududiy rivojlanishga qo'shadigan hissasini oshirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. — New York: The Free Press, 1990. — 855 p.
2. Buhalis D., Amaranggana A. Smart Tourism Destinations // Information and Communication Technologies in Tourism 2014. — Cham: Springer, 2013. — P. 553–564.
3. Tuxliyev I.S., Hayitboyev R., Ibodullayev N.E., Amriddinova R.S. Turizm asoslari. Darslik. — Samarqand: SamISI, 2010. — 220 b.
4. Ergashxo'jayeva Sh.J. Marketing. O'quv qo'llanma. — Toshkent: TDIU, 2018. — 280 b.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100